



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 yanvar holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 5,5 foizga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi 1,1 f.p. kamaydi
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar 1,4 barobarga ko'proq

2017 yil yakuni bo'yicha Viloyatda 2,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,1 foizga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 foizga kamaygan, hamda ularning soni 1,5 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 5,5 foiz (0,8 ming birlik) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15,6 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Buxoro shahrida (33,0 foiz), G'ijduvon (10,4 foiz), Romitan (7,4 foiz) va Jondor (6,8 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(birlikda)



Korxonalar va tashkilotlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,7 f.p), savdoda (-1,6 f.p), tashish va saqlashda (-0,1 f.pdan)kamayganligi, axborot va aloqada hamda qurilishda o'zgarishsiz, buning natijasida boshqa turlarda (+0,6 f.p.), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (+0,6 f.p), sanoatda (+1,1 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,1 f.p.), faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,5 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,5 foizni tashkil etganligini korsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,1 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 27,0 foiz boshqa faoliyat, 22,2 foiz savdoda, 14,8 foiz sanoatda, 9,6 foiz qurilishda, 9,6 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,6 foiz tashish va saqlash, 6,2 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 2,7 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 1,3 foiz axborot va aloqa turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) foizda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1yanvar holatiga Viloyatimizda jami 91 ta Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 61tasi qo'shma korxonalar, 30 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Buxoro shahar 52 ta (57,1 foizi), Kogon 9 ta (10,0 foiz) va Buxoro tumanlarida 7 ta (7,7 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Olot tumani, Shofirkon tumani 1ta (1,1 foiz), Qorovulbozor tumani 1ta (1,1 foiz) va G'ijduvon tumani 1 ta (1,1 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

	Soni	Ulushi, %
Buxoro viloyati	91	100,0
Buxoro sh	52	57,1
Kogon sh	2	2,2
Tumanlar:		
Buxoro	7	7,7
Bobkent	6	6,5
Jondor	3	3,3
Kogon	9	10,0
Olot	0	0,0
Peshku	3	3,3
Romitan	3	3,3
SHofirkon	1	1,1
Qorako'l	3	3,3
Qorovulbozor	1	1,1
G'ijduvon	1	1,1


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, shulardan asosiy qismi Buxoro shahrida 13 ta, Buxoro, Vobkent, G'ijduvon, SHofirkon va Qorovulbozor tumanlarida 1 tadan tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni hududlar kesimidagi soni, birlikda

Buxoro viloyati	Buxoro shahri	Buxoro tumani	Vobkent tumani	G'ijduvon tumani	SHofirkon tumani	Qorovulbozor tumani
18	13	1	1	1	1	1

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (foizda)




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 61 ta (67,0 foizni), savdoda 10 ta (11,0 foizni), boshqa turlarida esa 8 ta (8,8 foizni) tashkil qilgan, eng kamlari esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,1 foizni), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta (1,1 foizni), Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6ta (6,6 foizni) va Qurilishda 4 ta (4,4 foizni) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda Axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, demak asosan sanoatda 11 ta, savdoda 1 ta, qurilishda 1 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1 ta va boshqa faoliyat turlarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hamkor davlatlar ishtirokidagi ulushi

Viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi 91 ta korxonalarning 75,8 foizi (69 ta) uzoq xorijiy davlatlar hissasiga, 24,2 foizi (22 ta) esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (keying o'rinlarda MDH davlatlari) davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Jumladan, MDH davlatlari ichida Rossiya Federatsiya kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan xorijiy korxonalar 15 tani, Qozog'iston Respublikasi 3 tani, Ozarbayjon Respublikasi 1 tani, Belarus 1 tani, Qirg'iziston Respublikasi 1 tani va qolgan davlatlar 1 tani tashkil etadi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning MDH davlatlari kesimidagi soni, birlikda



Uzoq davlatlar kapitali ishtirokidagi 69 ta xorijiy korxonalarning 14 tasi Xitoy Xalq Respublikasi, 7 tasi Eron Islom Respublikasi, 6 tasi Janubiy Koreya Respublikasi, 6 tasi Turkiya Respublikasi, 5 tasi Buyuk Britaniya, 5 tasi AQSH, 4 tasi Hindiston Respublikasi, 3 tasi Germaniya Federativ Respublikasi, 2 tasi Afg'oniston Islom Respublikasi va 17 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning uzoq davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 yanvar holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 12,6 ming ortiqni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 8,9 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi yani 4375 tasi (34,6 foizi) Buxoro shahriga, 1330 tasi (10,5 foizi) G'ijduvon, 952 tasi (7,5 foizi) Romitan hamda 904 tasi (7,1 foizi) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar kesimidagi ulushi, foizda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2017 yil yakuni bilan 1,9 mingdan ortiq Kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilga qaraganda 7,7 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlari Buxoro shahrida (657 ta), G'ijduvon tumani (225 ta), Romitan tumani (190 ta) va Buxoro tumanlarida (132 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor tumani (37 ta), Olot tumani (56 ta) hamda Vobkent tumani (76 ta). vi-

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar kesimidagi soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


Faoliyat yuritayotgan 12,6 mingdan ortiq kichik tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga bo'lganda kichik korxonalar 7,5 foizni (0,9 mingtani), mikrofirmalar esa 92,5 foizni (11,7 mingtani) tashkil qilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda

Mikrofirmalar, %




Kichik korxonalar, %



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 yanvar holatiga 716 tani tashkil etib, ulardan 670 tasi yoki 93,6 foizi faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni 36,1 foizga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Oilaviy korxonalar soni

Jami 670 ta faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi yani, 257 tasi (38,4 foizi) Buxoro shahar, 97 tasi (14,5 foizi) G'ijduvon tumaniga, 53 tasi (7,9 foizi) Romitan tumani hamda 48 tasi (7,2 foizi) Vobkent tumani hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar 5 tasi (0,7 foizi) Qorovulbozor tumaniga, 11 tasi (1,6 foizi) Kogon shahriga, 12 tasi (1,8 foizi) Jondor tumaniga hamda 20 tasi (3,0 foizi) Olot tumaniga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu hududlarda oilaviy korxonalar bilan ishlash yahshi yo'lga qoyilmaganligini ko'rsatib turibdi.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi ulushi, foizda



Oilaviy korxonalar soni

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 30,0 foizi yoki 201 tasi sanoat, 28,2 foizi yoki 189 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,9 foizi yoki 93 tasi savdo, 15,7 foizi yoki 105 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,9 foizi yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 foizi yoki 8 tasi axborot va aloqa, 0,7 foizi yoki 5 tasi qurilish, 0,9 foizi yoki 6 tasi tashish va saqlash hamda 7,5 foizi yoki 50 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



Oilaviy korxonalar soni

2017 yilda 220 ta Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, demak asosan sanoatda 74 ta, yashash va ovqatlanish xizmatlarida 76 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 30 ta, savdoda 17 ta va boshqa faoliyat turlarida 23 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

F.Xakimova
(0371) 230-83-20

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR)
ma'lumotlari asosida tayyorlangan